

QO`YLAR DIKTIOKAULYOZNING EPIZOTOLOGIYASI VA TEKSHIRISH USULLARI

Rasulov R. A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada respublika xo'jaliklari sharoitida qo'ylar diktiokaulyozning epizootologiyasi va tekshirish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan va talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Diktiokaulyoz nafas tizmi stongilyatozlar, , gelmentoz , sifatiy miqdoriy Invaziyaning intensivligi (II), Invaziyaning ekstensivligi (IE).

Mavzuning dolzarbligi: Davlatimiz rahbariyati tomonidan chorvadorlarga berilayotgan imtiyozlar va ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli chorva hayvonlari son jihatidan jadal ko'paytirilayotgan bo'lsada, ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Kasalliklarning sabablarini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish orqali sog'lom va mahsuldor qo'ylar podasini xo'jalikning o'zida yaratish zooveterinariya xodimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada veterinariya fani va amaliyoti oldiga shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga qarashli chorva mollarining kasalliklariga qarshi kurashish va davolashning hamda hayvonlar mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashning samarali va kamchiqim usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishishdek dolzarb vazifalar qo'yilmoqda.

Qo'ylar zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan kasalliklar orasida hayvonlar nafas a'zolarining kasalliklari, jumladan qo'ylarda diktiokaulyoz kasalligi asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklariga qo'ylar orasida diktiokaulyoz kasalligi keng tarqalganligiga qaramasdan, ushbu kasallikning sabablari, rivojlanish xususiyatlari, erta aniqlash, davolash va oldini olishning samarali usullari to'liq ishlab chiqilmagan.

Qo'ylar orasida diktiokaulyoz kasalligi oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi va ularning qisir qolishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda.

Tadqiqotlar maqsadi qo'ylar orasida gelmintozlarning tarqalishini, uchrash sabablarini aniqlash, nosog'lom xo'jaliklarda kasallikning kechishi va klinik belgilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ertachi tashxis qo'yishdan iborat.

Tadqiqotlar ob'yekti va uslubiyatlar. Diktiokaulyoz qo'y, echki, qoramol, tuya, yovovoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlarni o'pkasida va alveollarada hamda bronxlar va traxiyasida parazitlik qiladi. Diktiokaulyoz qo'ylarda va echkilarda uchrashi qo'ychilik fermer xo'jaliklariga sezilarli darajada o'zni tasirni o'tkazmoqda . Invazion lichinkalar tashqi muhitga sharoitlariga ancha chidamli , ular qo'rg'oqchlikda 30- kungacha muzlatilganda esa 15 kun davomida tiriklik qobiliyatni saqlab qoladi. Namlikda lichinkalarining faolligi yanada ortadi. Yomg'irdan keyin lichinkalar o'tlar bo'ylab tik harakat qiladi , natijada qo'y va echkilarni diktiokaulyoz bilan



zararlanishi ortadi. Lichinka o'pka qon tomirlar va parinximasni teshib bronxlarga o'tadi bu yerda rivojlanishni davom ettirib 1-2 oydan 105 kundan keyin jinsiy voyaga yetadi. Qo'y va echki organizmida 5-6 oydan 1,5-2 yilgacha parazitlik qiladi. Bu kasallikning tarqalishga yil fasillari hayvonlarni yoshi tabiiy iqlim sharoit muhim rol o'ynaydi O'zbekistonda qo'y va echkilar diktiokauliyoz lichinkasi bilan sug'oriladigan hududlarda asosan kuz va bahor oylarida, dasht va yaylovlarda kuz oylarida tog' va tog'oldi hududlarida esa bahor va kuz oylarida hamda qish oylarining boshlarida zararlanadi. Kasalangan qo'y va echkilarda kasallik yuqandan 15-20 kundan keyin yo'tal paydo bo'ladi Keyinchalik ular o'sishdan orqada qoladi oriqlab ketadi junlari siyraklashadi Burun teshigdan suyuqlik oqadi darmonsizlanib joyidan tura olmaydigan bo'lib qoladi Agarda dovolanmasa kasalangan hayvonlarning 10-70% nobud bo'lishi mumkin. 1950 yillardan keyingi davrni o'z ichiga olib, bu bosqichda K.I. Skryabin, V.S. Ershov va N.V. Badanin boshchiliklarida o'zbek gelmintologiya maktabiga asos solinadi hamda bir necha yuzlab mahalliy yuqori malakali mutaxassis – parazitolog-gelmintologlar etishib chiqadi.

1960 yillardan boshlab hayvonlarning gelmintozlarini rejali va har tomonlama o'rganish boshlandi (E.H. Ergashev, Sh.A. Azimov, J.A. Azimov, B.S. Salimov, Sh.M. Ruziev, M.A. Aminjonov, J.Sh. Shopulatov, A.O. Oripov, G.S. Pulatov, T.A. Abduraxmonov va boshqalar). Dastlab barcha qishloq xo'jalik hayvonlarining gelmintofaunasi va asosiy gelmintozlarining turli zonalar bo'yicha epizootologik xususiyatlari o'rganildi. Keyinchalik xavfli va keng tarqalgan gelmintozlarga qarshi kurash choralari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbqiq etildi.

Hozirgi vaqtda parazit nematodalar sistimatikasiga ko'ra 2 ta kenja sinifga va 19 turkumga bo'lib o'rganiladi. Nematodalar keltirib chiqaradigan kasalliklar nematodozlar dep aytiladi va ular chorvachlikda katta iqtisodiy zarar yetkazishi bilan birga inson salomatliga uchun ham eng xavfli hisoblanadi Parazit nematodalarni har tamonlama chuqur o'rganishgan rus olimlaridan K.I. Skryabin, N.P. Shixobalova, R.S. Shuls, V.M. Ivashkin, A.A. Mozgov, M.D. Sonin, K.M. Rijikov, A.A. Parmonov, o'zbek olimlaridan A. T. To'laganov, M.A. Sultonov, E.H. Ergashev, J.A. Azimov, Z.N. Norboyev, A.O. Oripov, T.K. Qobilov, O.M. Mavlonovlarni xizmatlari katta.

Ko'pchilik gelmintoz kasallik qo'zg'atuvchilari ovqat hazm qilish sistemasida yoki u bilan bog'liq bo'lgan organlarda parazitlik qilishga moslaashgan. Shu sababli parazitlar o'zining tuxumlari, lichinkalari yoki bo'g'inlarini tezak orqali tashqi muhitga chiqarib tashlaydi. Shuning uchun laboratoriyada ko'pincha gelmintokoprologik tekshiruv o'tkaziladi.

Gelmintokoprologik tekshiruv bu – hayvon, parranda tezagini tekshirib, unda gelmintlarning o'zini, tuxumlarini, bo'g'inlarini yoki lichinkalarini topishdan iborat.

Gelmintokoprologik tekshirish 2 usulda olib boriladi:

1. Sifatiy

2. Miqdoriy

1. Sifatiy gelmintokoprologik tekshirishda hayvon va parrandalarning tezak namunasi tekshirilib, unda parazit tuxumlari, lichinkalari yoki bo'g'inlarini topishdan iborat.

2. Miqdoriy gelmintokoprologik tekshirish sifatiy gelmintokoprologik tekshirishga o'xshash bo'lib, biroq bunda invaziyaning intensivligini hisoblab chiqiladi.

Invaziyaning intensivligi (II) - hayvon, parrandalarning tezak namunasini tekshirib, unda topilgan gelmint miqdorini aniqlash tushuniladi.

Invaziyaning ekstensivligi (IE) - fermada, otarda, xo'jalikda, tumanda, viloyatda gelmintoz kasalliklariga chalingan qoramollar soniga aytiladi va foiz hisobida aniqlanadi.



Gelmintolyarvoskopiya usuli. Gelmintolyarvoskopiya usuli deb hayvon, parranda hamda odamlarning tezagi tekshirib, unda parazit, gelmintlarning lichinkalarini topishga aytiladi. Bunda ham bir qancha olimlarning tavsiya etgan usullari mavjud:

1. Berman – Orlov usuli. Bu usul keng tarqalgan, texnik jihatdan unchalik murakkab bo'lmagan usul hisoblanib, gelmintlarning harakatchan lichinkalarini tezakdan suvga chiqarib, cho'kmaga cho'ktirishga asoslangan. Bu usulni birinchi marotaba Berman degan olim tuproq chuvalchaglarning lichinkalarini topish uchun tavsiya etgan. Keyinchalik Orlov degan olim hayvonlar tezagidagi diktiokaulus lichinkalarini topishda qo'llagan. Usulni bajarish texnikasi quyidagicha: og'iz tomonining diametri 10-15 sm keladigan voronka olinib, uning uchiga uzunligi 10-15 sm keladigan rezina naycha o'rnatiladi. Naychani ikkinchi uchini Mor qisqichi bilan qisiladi. Rezina naycha o'rnatilgan voronkaga sim to'r qo'yilib shtativga o'rnatiladi va unga iliq 37-38 gradusli suv quyiladi. Sim to'rga (yoki dokaga o'rab gumon qilingan hayvonning tezakidan 10-15 gramm solinadi va shu holatda bir necha soat qoldiriladi (agarda qo'y va echki tezagi bo'lsa -6 soat, qoramol tezagi bo'lsa 12 soat). So'ngra rezina naychani pastki qismidagi suyuqlik sentrifuga probirkasiga quyilib, bir minut davomida aylantiriladi va hosil bo'lgan cho'mani Petri tovoqchalariga solib yoki katta hajmdagi buyum oynasiga, qaysikim atrofi parafin yoki plastilin bilan o'rab olingan, quyib chiqib mikroskop ostiga tekshiriladi. Bunda ilonsimon harakatdagi lichinkalarni topish mumkin.

2. Vayda usuli. Bu juda ham oddiy usul bo'lib faqat shariksimon shakldagi tezaklarni tekshirish uchun mo'ljallangan. Usulni bajarish texnikasi quyidagicha: Gumon qilingan hayvondan 5-10 ta qumaloq tezak soat oynachasiga yoki Petroi tovoqchasiga solinadi va uning ustiga 37-28 gradusli suvdan biroz qo'shib 15-40 minut davomida saqlanadi. SHundan so'ng qumaloq tezaklar olib tashlanib qoldiq mikroskop ostida tekshiriladi. Bunda ham ilonsimon harakatdagi lichinkalarni topish mumkin. Biroq bu usulning samaradorligi past, sababi juda kam miqdorda tezak namunasi olinadi hamda qumaloq, agarda hayvon kuchli invaziyalangan bo'lsa, tezaklar yuzasidagi lichinkalar suvda suzib chiqishi mumkin, lekin qumaloq ichidagi lichinkalar suvda suzib chiqmaydi.

3. Oddiylashtirilgan VITI usuli. Bu usul xuddi Berman-Orlov usuliga o'xshash, biroq oddiylashtirilgandir. Usulni bajarish texnikasi quyidagicha: Hajmi 30-50 ml keladigan stakan olinadi va ichi iliq 37-38 gradusli suv bilan to'ldiriladi. So'ngra gumon qilingan hayvonlardan 5-10 gramm tezak namunasi olinib, dokaga o'rab stakandagi suvga botirib qo'yiladi. Agar, ko'y, echki tezagi bo'lsa – 6 soatgacha, qoramol tezagi bo'lsa 12 soatgacha saqlanishi kerak. Dokaga o'ralgan tezak qancha ko'p muddat suvda saqlansa, shuncha ko'p lichinkalar suvga suzib chiqadi. Biroq, yuqorida ko'rsatilgan muddatdan oshmaslik kerak, aks holda boshqa strongilyat tuxumlaridan ham lichinkalar chiqib aniq diagnoz qo'yishda halaqit beradi. Yuqorida aytib o'tilgan muddat o'tgach, dokadagi tezak olib tashlanib, stakandagi namuna 10-15 minut davomida saqlanib tindiriladi. So'ngra namunaning suyuq qismi olib tashlanib, qoldiq Petri tovoqchalariga yoki katta hajmdagi buyum oynachasiga quyilib mikroskop ostida tekshiriladi. Bunda ilonsimon harakatdagi diktiokaulus, protostrongilyus lichinkalarini topishimiz mumkin.

Xulosalar. Qo'ylar diktiokaulozning kelib chiqmasligi uchun hayvonlarni tuyimli oziqalar bilan oziqlantirish va kasallikni tekshirishda gelmintolyarvoskopik (Berman-Orlov va Vayda) va oddiylashtirilgan VITI usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Курбанов Ш. Х., Салимов Б. О распространении кишечных цестод овец в условиях Узбекистана //Global Science and Innovations: Central Asia. – 2019. – Т. 2. – С. 32-35
2. Курбанов Ш. Х., Салимов Б. С. МОНИЕЗИОЗ ОВЕЦ И МЕРЫ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ //Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК. – 2018. – С. 119-124.
3. Kh K. S. Biology, Ecology, Morphology And Epizootological Characteristics Of Sheep Moniesis //The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 8-14.
4. Kurbanov S. K., Hamzaeva M. Y. Epizootology of Sheep Tizaniesiosis, Some Diagnostic Signs of the Causative Agent //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – Т. 9. – С. 26-29.
5. Курбанов Ш. Х., Салимов Б. С. КИШЕЧНЫЕ ЦЕСТОДЫ ОВЕЦ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА //СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК. – 2019. – С. 80-84.
6. Ачилов, О. Э., Ибрагимов, Ф. Б., & Абдурахманова, Н. Ш. (2021). Качество мяса при эхинококкозе баранины.
7. Elmuradovich, A. O. (2022, January). BACTERIAL DAMAGE TO CARCASSES AND INTERNAL ORGANS IN CATTLE ECHINOCOCCOSIS. In ArchiveofConferences (pp. 15-18).
8. Achilov, O., Hasanov, S., &Yulchiev, J. (2020). IMPROVING MEAT INSPECTION AND CONTROL ON THE SLAUGHTERHOUSE IN UZBEKISTAN. Financed by the Erasmus+ programme of the European Union The conclusions and view expressed herein are those of the authors and do not necessarily reflect an official view of the European Commission.
9. Ачилов, О., &Гуиди, А. (2021). QUALITY AND SAFETY OF SHEEP MEAT INFECTED WITH ECHINOCOCCOSIS IN THE UZBEKISTAN. Вестник Ветеринарии и Животноводства, 1(1).
10. Ачилов, ОдилжонЭлмурадович. "ПАТОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ЭХИНОКОККОЗЕ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В САМАРКАНДЕ." ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2021: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ (2018).
11. Ачилов, О. Э., Ибрагимов, Ф. Б., & Абдурахманова, Н. Ш. (2021). Качество мяса при эхинококкозе баранины.
12. Achilov O. E., Ibragimov F. B. Veterinary-sanitary examination of beef infected with echinococcosis //Veterinary medicine. Journal. – 2020. – Т. 12. – С. 27-28.
13. Жуков, А. И., Юнусов, Х. Б., Джаббаров, Ш. А., Федотов, Д. Н., Даминов, А. С., Кучинский, М. П. (2020). МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ ПАТОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ОРГАНАХ ЖИВОТНЫХ.
14. Даминов А. С., РАЖАМУРОДОВ З. Т. ВЛИЯНИЕ БОБОВЫХ КУЛЬТУР НА РУБЦОВЫЙ МЕТАБОЛИЗМ У КОРОВ //Ветеринария. – 2004. – №. 12. – С. 45-45.
15. Mahammadiyev Zohid Nasrillayevich, Xamrayev Asqar Xasanovich, Daminov Asadullo Suvonovich. "INFLUENCE OF SOME BIOECOLOGICAL INDICATORS OF WATER ON FISH ORGANISM." *Archive of Conferences*. 2022.





16. Даминов А. С. и др. ИСПЫТАНИЕ НОВЫХ СОВРЕМЕННЫХ АНТГЕЛЬМИНТНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ПАРАМФИСТОМАТОЗАХ ЖВАЧНЫХ //Вестник Ветеринарии и Животноводства. - 2022. – Т.2. - №1.
17. Даминов А. С., Уроков К.Х., Маматкулова Н. И. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ҚОРАМОЛЛАРИ ОРАСИДА ТРЕМАТОДОЗ ВА ЭХИНОКОККОЗНИ ТАРҚАЛИШ ДИНАМИКАСИ //Вестник Ветеринарии и Животноводства. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
18. Daminov Asadullo Suvonovich, Urokov Kamoliddin Khudaiberdievich, Mamatkulova Nargiza Ikramovna. "DYNAMICS OF THE DISTRIBUTION OF TREMATODOSIS AND ECHINOCOCCOSIS IN THE SAMARKAND REGION." Annals of the Romanian Society for Cell Biology (2021): 5181-5185.
19. Даминов А. С., Ураков К. Х. ТЕРАПЕВТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОНЕЗОЛА И МЕТСАЛБЕНА-2,5% ПРИ ФАСЦИОЛЕЗЕ И ПАРАМФИСТОМАТОЗЕ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //The Way of Science. – 2014. – С. 24.
20. Даминов А. С., Ураков К. Х. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОТДЕЛЬНЫХ АНТИГЕЛЬМИНТИКОВ ПРОТИВ ФАСЦИОЛЁЗА И ПАРАМФИСТОМАТОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //Путь науки. – 2016. – Т. 1. – №. 9. – С. 37-40.

